

2019 yil yanvar-noyabr oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'ycha 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 797,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 126,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – 105,3% ga o'sganligi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash – 89,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 98,3 % ga pasayishi hisoblanadi.

RAQAMLAR:

Sanoat ishlab chiqarish hajmi 17797,9 mlrd.so`mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,6% ni tashkil etdi


Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shir sur`ati –9,3 %

Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – 32,1 %

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi– 43,5 %

Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalari soni-7629 birlikni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.



Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,9 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajmi indeksi - 26,3 % ni tashkil qildi.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17007,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,6 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi - 25,3 mlrd.so'mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%), o'rta yuqori texnologiyali – 2367,8 mlrd.so'mni, (13,9 %), o'rta quyi texnologiyali – 5365,4 mlrd.so'mni, (31,6%) va quyi texnologiyali – 9248,6 mlrd.so'mni, (54,4%) tashkil etdi.

Yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Yuqori texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi- 25,3 mlrd. so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%

O'rta yuqori texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi - 2367,8 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-13,9 %

O'rta quyi texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi - 5365,4 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-31,6 %

Quyi texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi - 9248,6 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-54,4%



O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga, mebel ishlab chiqarish 0,1 % ga, terini qayta ishlash 1,0 % ga, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari) ishlab chiqarish 0,2% ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,6 % ga oshganligini, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 0,4 % ga, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 0,4 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 0,2 % ga pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, foizda
	Karbamid, ming azot tonna		
120,1		159,5	132,8
	Avtotransport oynalari, tonna		
1986,0		2518,4	126,8

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
736068,0	Sement klinkerlari, tonna 	770615,0	104,7
2,7	Natriy nitrat, ming tonna. 	3,9	143,5
118,2	Amoniy nitrat, ming t. azot 	142,7	120,7
16,8	Superfosfat ming P2O5 tonna. 	14,9	88,6
894608	Portlandsement, tonna 	936909	104,7
314,1	Suvsiz ammiak, ming tonna. 	408,0	129,9

Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 657,9 mlrd. so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 89,7 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,9 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 98,3 % ni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 5717,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 9,3 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 32,1 % ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari (%)




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 36,9 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,5% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,6% ulushini), Marg'ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,1% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 10,5 % ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,2% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,0% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3 % ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Bag`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Farg'ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2 % ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,3% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,9% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

2019 yil yanvar-noyabr oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi, foizda




2019 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va viloyatdagi ulushi, %



Hududlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar 992,8 mlrd. so'm, Qo`qon shahar 1204,2 mlrd. so'm, Quvasoy shahar 302,1 mlrd. so'm, Marg'ilon shahar 452,0 mlrd. so'm, Toshloq tumani 305,8 mlrd. so'm, Dang`ara tumani 185,3 mlrd. so'm, O`zbekiston tumani 238,5 mlrd. so'm, Quva tumani 215,5 mlrd. so'm, Buvayda tumani 132,2 mlrd. so'm, Beshariq tumani 260,4 mlrd. so'm, Bog`dod tumani 242,4 mlrd. so'm, Oltiariq tumanlari 215,8 mlrd. so'm, Farg`ona tumani 170,3 mlrd. so'm, Rishton tumani 237,5 mlrd. so'm, Yozyovon tumani 108,3 mlrd. so'm, Qo`shtepa tumani 136,2 mlrd. so'm, So`x tumani 54,2 mlrd. so'm, Uchko`prik tumani 201,5 mlrd. so'm, Furqat tumani 62,6 mlrd. so'mga, to`g`ri keldi.


Shahar va tumanlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va ulush



Farg`ona viloyatining 2019 yil yanvar-noyabr oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2019 yil yanvar-noyabr chiqarilishi		2019 yil yanvar-noyabr aholi jon boshiga	2019 yil yanvar-noyabr xalq iste`mol tovarlari		2019 yil yanvar-noyabr aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m	mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m
1	Oltiariq t.	389,5	2,2	1871,7	215,8	3,8	1036,9
2	Qo`shtepa t.	213,9	1,2	1144,5	136,2	2,4	728,9
3	Bog`dod t.	412,7	2,3	1951,3	242,4	4,2	1145,9
4	Buvayda t.	373,3	2,1	1667,3	132,2	2,3	590,5
5	Beshariq t.	404,9	2,3	1803,6	260,4	4,6	1160,1
6	Quva t.	750,0	4,2	2951,6	215,5	3,8	848,2
7	Uchko`prik t.	216,7	1,2	964,4	201,5	3,5	896,6
8	Rishton t.	356,4	2,0	1792,8	237,5	4,1	1194,5
9	So`x t.	155,6	0,9	2031,3	54,2	0,9	707,5
10	Toshloq t.	1862,2	10,5	9376,6	305,8	5,3	1540,0
11	O`zbekiston t.	416,1	2,3	1772,1	238,5	4,2	1015,7
12	Farg`ona t.	259,6	1,5	1238,5	170,3	3,0	812,8
13	Dang`ara t.	711,5	4,0	4173,0	185,3	3,2	1086,7
14	Furqat t.	174,9	1,0	1505,2	62,6	1,1	538,7
15	Yozyovon t.	228,6	1,3	2105,0	108,3	1,9	996,9
16	Farg`ona sh.	6560,9	36,9	22964,3	992,8	17,4	3475,0
17	Qo`qon sh.	2579,8	14,5	10311,0	1204,2	21,1	4812,9
18	Quvasoy sh.	992,8	5,6	10767,9	302,1	5,3	3276,4
19	Marg`ilon sh.	738,5	4,1	3175,0	452,0	7,9	1943,2


Viloyat bo'yicha	17 797,9	100,0	4799,7	5717,6	100,0	1541,9
------------------	----------	-------	--------	--------	-------	--------



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 43,5% tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 7629 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1364 tasi Qo`qon shahri, 963 tasi Farg`ona shahri, 904 tasi Marg`ilon shahri, 200 tasi Quvasoy shahri, 549 tasi Uchko`prik tumani, 448 tasi O`zbekiston tumani, 394 tasi Dang`ara tumani, 394 tasi Buvayda tumani, 336 tasi Quva tumani, 290 tasi Toshloq tumani, 275 tasi Oltiariq tumani, 261 tasi Bog`dod tumani, 235 tasi Rishton tumani, 221 tasi Qo`shtepa tumani, 214 tasi Farg`ona tumani, 155 tasi Furqat tumani, 148 tasi Yozyovon tumani, 142 tasi Beshariq tumani, 136 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1598 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 190 tasi Farg`ona shahri, 190 tasi Qo`qon shahri, 124 tasi Marg`ilon shahri, 52 tasi Quvasoy shahri, 126 tasi Quva tumani, 112 tasi Uchko`prik tumani, 104 tasi Buvayda tumani, 93 tasi O`zbekiston tumani, 82 tasi Oltiariq tumani, 84 tasi Rishton tumani, 76 tasi Dang`ara tumani, 69 tasi Farg`ona tumani, 60 tasi Bog`dod tumani, 61 tasi Toshloq tumani, 41 tasi Qo`shtepa tumani, 42 tasi Beshariq tumani, 38 tasi Furqat tumani, 26 tasi Yozyovon tumani, 28 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-noyabr oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

Sh.Zokirov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-87-19